

BADIIY MATNDA DISFEMIZMLARNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI

M.E.Toshbayeva

Katta o'qituvchi, O'zDJTU

Y.A.Xo'jamova

Katta o'qituvchi, O'zDJTU

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy diskursda disfemizmlarning pragmatik xususiyatlari va ularning kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda disfemizmning nutqdagi o'rnini, uning emotsional-ekspressiv, baholovchi va ijtimoiy funksiyalari ko'rib chiqiladi. Tahlil uchun ingliz adabiy matnlari, xususan, Pygmalion asaridan namunalar tanlab olindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, disfemizmlar badiiy diskursda nafaqat salbiy baho berish vositasi, balki shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy ierarxiyani ifodalovchi muhim pragmatik birlik hisoblanadi.

Kalit so'zlar: disfemizm, badiiy diskurs, pragmatika, nutq akti, ekspressivlik, ijtimoiy maqom

Abstract. This article analyzes the pragmatic characteristics of dysphemisms and their communicative functions in literary discourse. The study examines the role of dysphemism in speech, focusing on its emotional-expressive, evaluative, and social functions. For the analysis, examples selected from English literary texts, particularly from Pygmalion. The findings indicate that dysphemisms in literary discourse function not only as a means of expressing negative evaluation but also as important pragmatic units that reflect interpersonal relationships and social hierarchy.

Keywords: dysphemism, literary discourse, pragmatics, speech act, expressiveness, social status.

Аннотация. В данной статье анализируются прагматические характеристики дисфемизмов и их коммуникативные функции в художественном дискурсе. В исследовании рассматривается роль дисфемизмов в речи, при этом особое внимание уделяется их эмоционально-экспрессивной, оценочной и социальной функциям. Для проведения анализа были использованы примеры, отобранные из английских художественных текстов, в частности, из пьесы «Пигмалион». Полученные результаты свидетельствуют о том, что дисфемизмы в художественном дискурсе функционируют не только как средство выражения негативной оценки, но и как важные прагматические единицы, отражающие межличностные отношения и социальную иерархию.

Ключевые слова: дисфемизм, художественный дискурс, прагматика, речевой акт, экспрессивность, социальный статус.

Kirish. Til inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarning asosiy vositasi hisoblanadi. Nutq jarayonida turli stilistik vositalar qo'llanilib, ular orqali ma'no yanada kuchaytiriladi yoki o'zgartiriladi (Crystal, 2008). Shunday vositalardan biri-disfemizm bo'lib, u neytral ifodalar o'rniga salbiy yoki qo'pol birliklardan foydalanishni anglatadi (Allan & Burridge, 2006).

Pragmatika nuqtai nazaridan disfemizmlar nutq ishtirokchilarining niyatini, hissiy holatini va ijtimoiy pozitsiyasini ochib beradi (Levinson, 1983; Yule, 1996). Ayniqsa, badiiy diskursda disfemizmlar obraz yaratish, konfliktni kuchaytirish va muallifning g'oyaviy pozitsiyasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi (Brown & Levinson, 1987).

Mazkur maqolaning maqsadi-badiiy diskursda disfemizmlarning pragmatik xususiyatlari va funksiyalarini aniqlash va tahlil qilishdir.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- 1) **Kontekstual tahlil usuli**-disfemizmlarning matndagi o'ri va ma'nosini aniqlash uchun;
- 2) **Pragmatik tahlil usuli**-nutqdagi yashirin ma'nolar va kommunikativ niyatni ochib berish uchun (Levinson, 1983);
- 3) **Diskursiv tahlil**-disfemizmlarning badiiy matndagi funksiyasini o'rganish uchun;
- 4) **Tanlab olish (sampling) usuli**-ingliz badiiy asarlaridan misollar ajratib olish uchun.

Empirik material sifatida Bernard Shouning "Pygmalion" asari dialoglari asos qilib olindi (Shaw, 1913).

Natijalar. Tahlil natijasida badiiy diskursda disfemizmlarning quyidagi pragmatik xususiyatlari aniqlandi:

1. Emotsional-ekspressivlik

Disfemizmlar kuchli hissiy holatlarni ifodalaydi (Allan & Burrige, 2006):

"Damnation!" → *"La'nat!"*

"Where the devil is that girl?" → *"U qiz qayerda o'zi, jin ursin?"*

2. Baholovchi funksiyasi

Disfemizmlar orqali shaxs yoki hodisaga salbiy baho beriladi (Crystal, 2008):

"fool" → *"ahmoq"*

3. Dehumanizatsiya (insoniylikdan chiqarish)

"this thing" → *"mana shu narsa"*

Bu orqali inson obyekt sifatida tasvirlanadi (Allan & Burrige, 2006).

4. Ijtimoiy tabaqalanishni ifodalash

"flower girl", *"scullerymaid"*

Bu birliklar ijtimoiy past maqomni bildiradi (Wardhaugh, 2010).

5. Psixologik ta'sir

"I'm only a squashed cabbage leaf"

Bu misolda disfemizmning ichkilashtirilishi kuzatiladi (Brown & Levinson, 1987).

Muhokama. Natijalar shuni ko'rsatadiki, disfemizmlar badiiy diskursda ko'p funksiyali birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat emotsional ta'sirni kuchaytiradi, balki ijtimoiy munosabatlarni ham shakllantiradi (Levinson, 1983).

Pragmatik jihatdan disfemizmlar quyidagilarni ifodalaydi:

-hukmronlik va ustunlik

-mensimaslik va kamsitish

-konflikt va qarama-qarshilik

Bundan tashqari, disfemizmlar nutq strategiyasining bir qismi sifatida qo'llanilib, kommunikativ maqsadga erishishga xizmat qiladi (Yule, 1996). Badiiy asarlarda esa ular qahramon xarakterini ochish va dramatik effekt yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, disfemizmlar badiiy diskursda muhim pragmatik vosita hisoblanadi. Ular orqali nutqning emotsional bo'yoyqorligi oshadi, shaxslararo munosabatlar yoritiladi va ijtimoiy ierarxiya aks ettiriladi (Wardhaugh, 2010).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, disfemizmlar tilning faqat salbiy qatlami emas, balki kommunikativ va stilistik jihatdan muhim komponentidir. Ularni o'rganish til va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Keith Allan, K., & Kate Burridge, K. (2006). *Forbidden words: Taboo and the censoring of language*. Cambridge University Press.
2. George Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford University Press.
3. Stephen C. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.
4. Penelope Brown, P., & Stephen Levinson, S. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
5. David Crystal, D. (2008). *A dictionary of linguistics and phonetics*. Blackwell Publishing.
6. Ronald Wardhaugh, R. (2010). *An introduction to sociolinguistics*. Wiley-Blackwell.
7. George Bernard Shaw, G. B. (1913). *Pygmalion*. Constable and Company.